



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG‘I**

2023 yil “30” oktabr 01950 - son

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi
“O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni ijrosini
ta‘minlash to‘g‘risida**

Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risidagi 432-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN

1. Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni ijrosini ta‘minlash to‘g‘risidagi 432-sonli buyrug‘i ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent tibbiyot akademiyasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Barcha prorektorlar (Sh.A.Boymuradov, T.A.Bobomuratov, F.L.Azizova, S.I.Dustmurodov, M.Sh.Karimov, J.J.Isroilov), fakultet dekanlari (I.O.Otajonov, A.A.Irnazarov, A.A.Xamrayev, F.I.Salomova, J.X.Tursunov), boshqarma va bo‘lim boshliqlari Toshkent tibbiyot akademiyasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:

M.Xasanova

Bo'lim boshlig'i

Kelishildi:

Sh.Boymuradov

Rektor v.v.b.

T.Bobomuratov

**Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar
bo'yicha prorektor**

F.Azizova

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

M.Karimov

Davolash ishlari bo'yicha prorektor

S.Dustmuradov

Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor

F.Azizova

Kafedra mudiri

F.Salomova

Dekan

I.Otajonov

Dekan

A.Irnazarov **Dekan**

A.Xamraev **Dekan**

S.Aliev **Dekan**

A.Musaxonov **Markaz rahbari**

Sh.Islomqulova **Yuriskonsult**

Toshkent tibbiyot akademiyasi rektorining
2023-yil “ ___30_” ___10_____dagi ___01950___sonli buyrug‘iga
ilova

**Toshkent tibbiyot akademiyasining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan topshiriqlar ijrosini ta‘minlash bo‘yicha
chora-tadbirlar rejasi**

T/r	Chora-tadbirlar	Muddat	Mas‘ul ijrochilar
Ta‘lim tizimi islohotlari			
1	Toshkent tibbiyot akademiyasi ta‘lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish.	2023-yil dekabr	O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Xalqaro aloqalar bo‘yicha prorektor Ta‘lim-sifatini nazorat qilish bo‘limi
2	Biologiya, kimyo, epidemiologiya kabi yo‘nalishlarda kompleks ilmiy-tadqiqot dasturlari doirasida fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish	2023-2024 o‘quv yili davomida	Ilmiy ishlar bo‘yicha prorektor Tegishli kafedra mudirlari
3	Yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan kompleks dasturlar doirasida bajariladigan fundamental tadqiqot yo‘nalishi bo‘yicha hamkorliklarni yo‘lga qo‘yish	2023-yil dekabr	Xalqaro aloqalar bo‘limi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, fakultet dekanlari,
4	Toshkent tibbiyot akademiyasi va xorijiy ilmiy tashkilotlar hamkorligida qo‘shma ta‘lim loyihalarini tashkil etish	2023-2024 o‘quv yili davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, fakultet dekanlari, Xalqaro aloqalar bo‘limi
5	Toshkent tibbiyot akademiyasi ilmiy salohiyatini oshirish, xususan ilmiy darajali va unvonli kadrlar sonini ko‘paytirish	Yil davomida Doimiy	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
6	Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktoranturaga kvotalar sonini oshirish	2023-2024 o‘quv yili davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari

7	Professor-o'qituvchi va xodimlarni xorijiy ilmiy tashkilot va universitetlarga ilmiy stajirovkaga yuborish	2023-2024 o'quv yili davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
8	Innovatsion loyihalarni ishlab chiqish	2023-2024 o'quv yili davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari
9	Xorijdagi olim vatandoshlar bilan hamkorlikda qo'shma ilmiy loyihalar, anjuman va seminarlar, ma'ruzalar o'qishni tashkil etish	2023-2024 o'quv yili davomida	Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, fakultet dekanlari, Xalqaro aloqalar bo'limi
10	TTA professor-o'qituvchilarining chet tili va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish	Yil davomida doimiy	O'quv ishlari bo'yicha prorektor Xorijiy tillarni o'qitish markazi
11	Toshkent tibbiyot akademiyasini dunyoning eng nufuzli "Top-1000" oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga kirishini ta'minlash	2023-yil dekabr	Barcha prorektorlar, fakultet dekanlari
12	Toshkent tibbiyot akademiyasi tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash.	2023-2024 o'quv yili davomida	O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, Reja-moliya bo'limi, Xodimlar bo'limi
13	Axborot resups markazini zamonaviy adabiyotlar bilan to'ldirish va kutubxona fondini to'liq raqamlashtirish.	2023-yil dekabr	O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor. Moliya iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, Axborot resurs markazi rahbari
Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar			
14	Aholi orasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish. Biriktirilgan mahallarda sog'lom turmush tarzini targ'ib etish	2023-2024 o'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, O'smirlar, bolalar va ovqatlanish gigienasi kafedrasini mudiri, mahallalarga biriktirilgan kafedra mudirlari
Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar			

15	Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta‘minlash, boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foiz oshirish.	2023-2024 o‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, Xotin qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi, Xodimlar bo‘limi boshlig‘i
Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo‘nalishlaridagi islohotlar.			
16	Yoshlarni zamonaviy kasb-hunar va chet tillariga o‘qitishni tizimli tashkil etish. “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish,	2023-2024 o‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi rahbari, Til markazi rahbari, Pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasini mudiri
17	Yoshlarni ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va bandligini ta‘minlash	2023-2024 o‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, fakultet dekanlari, Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi, tyutorlar
18	Yoshlar o‘rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish. Yoshlarni IT sohasi bo‘yicha bilimlarini oshirish choralarini ko‘rish. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida iqtidorli yoshlarni zamon talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash.	2023-2024 o‘quv yili davomida	Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va informatika kafedrasini mudiri, Raqamli ta‘lim texnologiyalari markazi rahbari
19	Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanadigan talaba yoshlar qamrovini kengaytirish. Ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish. sport bilan muntazam shug‘ullanishiga imkoniyat yaratish.	2023-2024 o‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, fakultet dekanlari, “Shifokor” sport klubi, tyutorlar
Ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha islohatlar			
20	TTAda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlash.	2023-2024 o‘quv yili davomida	Yoshlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma‘naviyat va ma‘rifat bo‘limi, tyutorlar

21	O'zbek milliy san'atini targ'ib qilish yo'nalishida ko'rik tanlovlari, festivallari va ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar tashkil qilish.	2023-2024 o'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultet dekanlari, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, tyutorlar, madaniyat uyi, Yoshlar yetakchisi
22	Mamlakatimizning diqqatga sazovor qadamjolari shuningdek, tarixiy shaharlariga xodimlar va talaba-yoshlar turistik salohiyatini oshirish.	2023-2024 o'quv yili davomida	Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, fakultet dekanlari, tyutorlar, Yoshlar yetakchisi
Atrof muhitini muhofaza qilish bo'yicha islohotlar			
23	Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasida faol ishtirok etish. Akademiya hududida "yashil bog'lar" tashkil etish	2023-2024 o'quv yili davomida	Barcha prorektorlar, barcha fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari, kafedra mudirlari, Yoshlar ittifoqi yetakchisi
Qonun ustuvorligi ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar			
24	Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, TTAda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish.	2023-2024 o'quv yili davomida	Komplaens nazorat bo'limi, barcha prorektorlar, barcha fakultet dekanlari, bo'lim boshliqlari, kafedra mudirlari,



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING
BUYRUG‘I

2023 - yil « 22 » sentabr 432 -son

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni
ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha nazorat reja **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Vazir o‘rinbosarlari, vazirlikning tarkibiy bo‘linmalari, tizim tashkilotlari, oliy ta‘lim muassasalari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirilishi yuzasidan:

har oyda Bosh vazir o‘rinbosarlari huzurida tanqidiy ko‘rib chiqilishi;

har chorakda Hukumat majlislarida muhokama qilib borilishi;

har yarim yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga hisobot taqdim qilinishini inobatga olgan holda, mazkur Farmonda belgilangan tegishli topshiriqlarning ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta‘minlasin.

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar boshqarmalari boshliqlarini Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining hududlar kesimida ijro etilishi bo‘yicha har chorakda axborot berilishi yuzasidan shaxsan javobgar ekanliklari ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Axborot xizmatlari bo'limi (N.Abduqunduzova) mazkur Farmonda belgilangan topshiriqlar ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritib borilishini ta'minlasin.

6. Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi (G.Ayubov) mazkur Farmon ijrosi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirib borsin.

7. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari K.Karimov va Vazir kotibiyati boshlig'i Sh.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



I.Abduraxmonov

**NUSXA
ASLIGA TO'G'RI**

ilova

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarning
samaradorlik ko‘rsatkichlariga erishish bo‘yicha
NAZORAT REJA**

T/r	№	Maqsad	2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlari	Mas‘ul ijrochilar
I. HAR BIR INSONGA O‘Z SALOHIYATINI RO‘YOBGA CHIQARISHI UCHUN MUNOSIB SHAROITLARNI YARATISH				
1.1. Ta‘lim tizimi islohotlari				
1.	6.	Professional ta‘lim tizimini rivojlantirish orqali o‘quvchilarni zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga o‘rgatish.	700 ta professional ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va moddiy-texnika bazasini takomillashtirish.	K.Karimov, O‘.Xidirov , U.Alijonov
			14 ta hududiy professional tayyorgarlik markazlarini tashkil etish, malaka toifasiga ega bo‘lgan pedagog kadrlar ulushini 50 foizga , masofaviy yoki aralash shakllarda tashkil etiladigan malaka oshirish kurslari ulushini 30 foizga yetkazish.	K.Karimov, Z.Xudoyberdiyev
			O‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlashda davlat grantini axborot texnologiyalari, qurilish, transport va logistika yo‘nalishlarida 100 foizga yetkazish.	K.Karimov, O‘.Alijonov
2.	7.	Oliy ta‘lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish.	Yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish.	K.Karimov, A.Xoliqov
			Umumiy o‘rta ta‘lim tashkilotlarini oliy ma‘lumotli pedagog kadrlar bilan to‘liq ta‘minlash.	
			30 ta oliy ta‘lim muassasasining ta‘lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o‘tkazish.	K.Karimov, Sh.Nematov

			<p>“Top-500”ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo’shma ta’lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish.</p>	<p>K.Karimov, A.Xoliqov, F.Xodjayeva</p>
			<p>10 ta oliy ta’lim muassasasini dunyoning eng nufuzli “Top-1 000” oliy ta’lim tashkilotlari reytingiga kiritishga erishish.</p>	<p>K.Karimov, Sh.Ne’matov</p>
			<p>Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar natijadorligini oshirish va ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish.</p>	<p>K.Karimov, Sh.Turdikulova, Sh.Otajonov, O.To’ychiyev, A.Xoliqov</p>
3.	8.	<p>Oliy ta’lim muassasalari tashkiliy-boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, ularning moddiy-texnik ta’minotini mustahkamlash.</p>	<p>5 ta oliy ta’lim muassasasini milliy tadqiqot oliygohlariga aylantirish.</p>	<p>K.Karimov, Sh.Turdikulova, A.Xoliqov, Sh.Otajonov, oliy ta’lim tashkilotlari (<i>kelishuv asosida</i>)</p>
			<p>Qo’shimcha 120 ming o’rinli o’quv binolari hamda 150 ming o’rinli talabalar turar joylarini qurish.</p>	<p>S.Buzrukxonov, B.Oxunov, D.Yusupov</p>
			<p>Kutubxonalarni kamida 1 million zamonaviy adabiyotlar bilan to’ldirish va kutubxona fondini to’liq raqamlashtirish.</p>	<p>K.Karimov, Sh.Yakubov</p>
4.	9.	<p>Fundamental tadqiqotlarni zamon talablaridan kelib chiqib yangi yo’nalishlar bilan</p>	<p>Fundamental tadqiqotlarni amalga oshirish uchun 3 trillion so’m mablag’ ajratish.</p>	<p>Sh.Turdikulova, J.Tavakkalov, Sh.Otajonov, O.To’ychiyev</p>

		boyitish.	Fundamental tadqiqot yo'nalishi bo'yicha 8 ta yetakchi xorijiy ilmiy maktablar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.	K.Karimov, Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev , Sh.Otajonov, F.Xodjayeva
			Til va adabiyot, tarix, arxeologiya, madaniyat va san'at yo'nalishlaridagi ilmiy dasturlar uchun 2 trillion so'm ajratish.	Sh.Turdikulova, J.Tavakkalov , Sh.Otajonov, O.To'ychiyev
5.	10.	Iqtisodiyotning eng tez o'sib borayotgan yo'nalishlarida amaliy tadqiqotlarni kuchaytirish, "korxonalar – oliygoh – ilmiy tashkilot" klaster tizimini joriy etish.	Amaliy tadqiqotlarga Davlat byudjetidan 4 trillion so'm mablag' yo'naltirish.	Sh.Turdikulova, J.Tavakkalov , Sh.Otajonov, O.To'ychiyev
	Iqtisodiyot tarmoqlarining "drayver" yo'nalishlarida 850 turdagi innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish.		Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev	
	Amaliy tadqiqotlar natijalari asosida 2,5 mingdan ziyod yangi ilmiy ishlanmalar yaratish.			
	Transport va logistika, qishloq xo'jaligida hosildorlik, energetika, biotexnologiya, geologiya va metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika yo'nalishlarida 8 ta ilmiy ishlabchiqarish klasterini tashkil etish.		Sh.Turdikulova, Sh.Otajonov	
6.	11.	Yosh tadqiqotchilarning ulushini oshirish, ularning ilmiy izlanishlarini qo'llab-	40 yoshgacha bo'lgan tadqiqotchilarning ulushini kamida 60 foizga yetkazish, ilmiy tashkilot xodimlarining ish haqini o'rtacha 2 barobarga oshirish.	Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev
	Ilmiy, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha yillik tanlovlar sonini 20 taga yetkazish.		Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev	

		quvvatlash.	Stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura, doktorantura hamda maqsadli doktorantura kvotalari sonini 5 200 taga yetkazish.	Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev
7.	12.	Barcha yo'nalishlarda innovatsion faoliyatni keng joriy etish, ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.	O'zbekiston Global Innovatsion Indeksda Top-50 talik mamlakatlar ro'yxatiga kirishini ta'minlash.	Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev
			Har bir million aholiga to'g'ri keladigan tadqiqotchilar sonini 2 ming nafarga yetkazish.	Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev
			Ichki va tashqi bozorlarda tijoratlashtirish natijasida yaratiladigan yangi innovatsion ishlanmalar sonini 2 baravarga oshirish.	Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev
1.2. Aholi salomatligini ta'minlash bo'yicha islohotlar				
8.	20.	Aholi orasida to'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish.	Ta'lim va tibbiyot muassasalariga tarkibida transyog', tuz va shakar miqdori ko'p bo'lgan mahsulotlarni olib kirish, tayyorlash, sotilishini 100 foiz cheklash.	Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev
1.3. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha islohotlar				
9.	25.	Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash.	Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish.	Sh.Ergashev, Sh.Xamidov
10.	29.	Fuqarolarni davlat hisobidan kasb-	2 million nafar fuqarolarni kasb-hunar, tadbirkorlik ko'nikmalari va xorijiy tillarga o'qitish.	K.Karimov, U.Alijonov

		hunarga o'qitish, ularning zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish bo'yicha kasbiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.	Kasbga o'qitish markazlarining 1,6 ming nafar o'qituvchilarini xalqaro standartlar asosida malakasini oshirish.	K.Karimov, Sh.Ne'matov
			Kasb-hunarga o'qitishda xususiy sektor ulushini 30 foizga yetkazish.	K.Karimov, U.Alijonov
1.4. Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo'nalishlaridagi islohotlar.				
11.	30.	Yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini yaratish.	Yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg'ul bo'lishini ta'minlash uchun har bir viloyatda 1 tadan "Kreativ park"lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish.	Sh.Turdikulova, S.Buzrukxonov, A.Sobirxonov, F.Mo'minov, O.To'ychiyev
			Maktab bitiruvchilari kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta'minlash.	K.Karimov, U.Alijonov
12.	31.	Yoshlarning intellektual salohiyatini oshirish, ularning ilmiy faoliyatini rag'batlantirish.	Ilmiy va innovatsion faoliyat, intellektual o'yinlar hamda chet tillarini o'rganishga jalb etish orqali kamida 2 million nafar yoshlarning iqtidorini rivojlantirish.	Sh.Turdikulova, S.Buzrukxonov, A.Sobirxonov, O.To'ychiyev
			Har yili 500 nafar iste'dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliygohlariga o'qishga yuborish.	K.Karimov, Sh.Nematov, oliy ta'lim tashkilotlari
13.	32.	Yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va ishsizlik darajasini kamaytirish.	400 ming nafar yoshlarning bandligini ta'minlash va muammolarini hal etishga erishish.	K.Karimov, U.Alijonov,
			Yoshlarning ishsizlik darajasini 14 foizdan 11 foizga kamaytirish.	A.Xoliqov, Sh.Nematov

14.	33.	Yoshlar o'rtasida IT sohasini yanada ommalashtirish hamda sohada xizmatlar eksportini oshirish.	"Bir million dasturchi" loyihasini kengaytirish va har yili 15 ming nafar eng iqtidorli yoshlarni nufuzli xalqaro kompaniyalar talablariga mos dasturlar asosida tayyorlash.	K.Karimov, S.Buzrukxonov, X.Sultanov , A.Sobirxonov
15.	34.	Jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanadigan yoshlar qamrovini kengaytirish.	Ommaviy sport tadbirlarini tashkil etish orqali yoshlar qamrovini 8 milliondan oshirish. Sport bilan shug'ullanishga jalb qilingan aholi ulushini 36 foizga yetkazish.	S.Buzrukxonov, N.Kasimov , R.Xudoyberganov
16.	35.	Respublikada sport bilan professional va doimiy shug'ullanuvchi yoshlar ulushini oshirish.	Sport-ta'lim muassasalarida muntazam shug'ullanuvchi yoshlar sonini 1 million nafarga yetkazish. 130 ming nafarga yaqin yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullanishiga imkoniyat yaratish .	S.Buzrukxonov, N.Kasimov , R.Xudoyberganov
17.	36.	Milliy terma jamoalarga yuqori malakali va natijador sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish.	Sport sohasida oliy ma'lumotli xodimlar ulishini 85 foizga yetkazish. Sohani rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot va izlanishlar sonini 140 taga yetkazish.	K.Karimov, A.Xoliqov Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev A.Yusupov
1.5. Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlar				
18.	38.	Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash.	Ilmiy va sotsiologik tadqiqotlar bilan jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning barcha asosiy masalalarini qamrab olishga erishish.	Sh.Turdikulova, S.Buzrukxonov, O.To'ychiyev , N.Kasimov

19.	41.	O'zbek milliy san'atini targ'ib qilish orqali mamlakatimizning turistik salohiyatini oshirish.	Sohada ta'lim berishga kamida 20 nafar yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilish.	K.Karimov, F.Xodjayeva , A.Xoliqov, U.Alijonov
20.	42.	Madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va ommalashtirish bilan bog'liq faoliyatni yanada takomillashtirish.	30 tadan ortiq nomoddiy madaniy meros elementini chuqur ilmiy tadqiq etish.	Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev , Sh.Otajonov, A.Yusupov
II. BARQAROR IQTISODIY O'SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASH				
21.	47.	Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg'or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish.	Tog'-kon metallurgiya, kimyo, elektrotexnika, to'qimachilik kabi sohalarda ilg'or muhandislar maktablarining faoliyatini yo'lga qo'yish , yirik korxonalarda o'zlarining kasbga tayyorlash markazlarini tashkil etish.	Sh.Turdikulova, Sh.Otajonov
			Metallni qayta ishlash, mashinasozlik va elektronika, transport va logistika, qishloq xo'jaligida hosildorlik yo'nalishlarida 8 ta ilmiy ishlab chiqarish klasterini tashkil etish.	Sh.Turdikulova, Sh.Otajonov , O.To'ychiyev
			Elektrotexnika, mashinasozlik, to'qimachilik, kimyo, qurilish materiallari, metallni qayta ishlash, geologiya, energetika, biotexnologiya, oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash, transport va logistika kabi yo'nalishlarda "Izlanish va rivojlantirish" (R&D) markazlarini tashkil etish.	
22.	54.	Qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini	Har bir tumanda agrar sohadagi ilm va innovatsiyalar, yangicha yondashuvlar, zamonaviy agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga ko'maklashuvchi markazlarni tashkil qilish.	Sh.Turdikulova, S.Buzrukxonov, O.To'ychiyev ,

		keskin oshirish.		F.Mo'minov, Sh.Otajonov
23.	57.	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirgan holda mamlakatni mintaqaviy "IT-HUB"ga aylantirish.	Startup loyihalarni IT-Parkning akseleratsiya (rivojlantirish) dasturi orqali qo'llab-quvvatlash yo'li bilan milliy bozor kapitallashuvini 1 milliard dollarga teng birinchi (Unicorn) startup loyihasini chiqarish.	Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev , Sh.Otajonov
24.	59.	Hududlarda xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish.	O'rta va yirik shaharlar hamda aholisi 300 mingdan ko'p bo'lgan tumanlarda zamonaviy bozor xizmatlari, IT, ta'lim, tibbiyot, yuridik, san'at, turizm, mehmonxona va umumiy ovqatlanish hamda transport xizmatlarini rivojlantirish.	K.Karimov, S.Buzrukhonov, F.Mo'minov , A.Xoliqov, U.Alijonov, X.Sultonov
25.	60.	Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish.	Qurilishda o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqib, yiliga 20 ming nafar professional usta tayyorlash.	K.Karimov, U.Alijonov
III. SUV RESURSLARINI TEJASH VA ATROF MUHITNI MUHOFAZA QILISH				
3.2. Atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha islohotlar				
26.	67.	Ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan "Yashil makon" umummilliy loyihasini kengaytirish.	Barcha davlat idoralari, korxonalar, ta'lim muassasalari hududlarida "yashil bog'lari" ni tashkil etish.	S.Buzrukhonov, F.Mo'minov , B.Oxunov, A.Tulanov

IV. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH

4.1. Xalq xizmatidagi davlat tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha islohotlar

27.	77.	<p>Davlat xizmatlarini raqamlashtirishning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun "Servis davlat" tizimini joriy qilish, fuqaro va davlat o'rtasidagi munosabatlarda byurokratik tartibotlarga barham berish.</p>	<p>Elektron shaklda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini 100 foizgacha yetkazish.</p> <p>Faqat Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatiladigan xizmatlar ulushini 50 foizgacha yetkazish.</p> <p>Kompozit va proaktiv tarzda ko'rsatiladigan davlat xizmatlari ulushini kamida 40 taga oshirish.</p> <p>Kamida 300 ta davlat xizmatlarini xususiy sektorga o'tkazish.</p> <p>Litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini kamida 20 foizga qisqartirish hamda 50 foizini soddalashtirish.</p> <p>Davlat xizmatlarini ko'rsatishning 300 taga yaqin tartib-taomillarini soddalashtirish.</p> <p>Davlat xizmatlarini "3 qadam", "foydalanuvchi uchun moslashtirilgan", "barchasi bir mobil ilovada" tamoyillari asosida raqamlashtirish.</p> <p>Davlat xizmatlarining 40 foizini xususiy sektorga o'tkazish va fuqarolarning shaxsiy ishtirokini 2 barobarga qisqartirish.</p> <p>"Elektron hukumat" tizimining yangi bosqichi – "Raqamli hukumat" tizimiga o'tilib, barcha hujjatlar va munosabatlarning raqamli shaklda bo'lishini ta'minlash.</p> <p>Fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi uchun murojaat qilishida ariza yozish, turli shakllarni to'ldirish kabi ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o'zi oladigan tizim yaratish.</p>	<p>B.Raximov, X.Sultonov</p>
-----	-----	--	---	---

28.	78.	Davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "Xalq xizmatidagi davlat" tamoyili asosida tashkil etish.	Sog'liqni saqlash, qurilish, transport, ta'lim sohalarida xususiy sektor ulushini kamida 3 barobar oshirish.	K.Karimov, S.Buzrukhonov, A.Xoliqov , D.Yusupov
			Davlat boshqaruvida mavjud bo'lgan 5 mingga yaqin funksiyani amalga oshirish jarayonlarini 100 foiz raqamlashtirish.	B.Raximov, X.Sultonov
			Davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosati doirasida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining kamida 30 foiz vazifa va funksiyalarini mahalliy ijro organlariga o'tkazish.	Sh.Ergashev, A.Qo'chqarov , G'.Ayubov, Sh.Xamidov
			Davlat organlari rahbarlarining o'zi rahbarlik qilayotgan idora yoki tizim faoliyatida yo'l qo'yilgan jiddiy xato va kamchiliklar uchun siyosiy javobgarligi institutini joriy qilish .	Sh.Ergashev, Sh.Ataxanov, A.Qo'chqarov , Sh.Xamidov, B.Maxsudov
29.	81.	Davlat fuqarolik xizmatini meritokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish.	Kadrlar bilan ishlash bo'yicha 2 mingdan ortiq tarkibiy tuzilmalar faoliyatini to'liq raqamlashtirish.	Sh.Turdikulova, B.Rahimov, X.Sultonov , Sh.Xamidov, A.Abdullayev
			Davlat fuqarolik xizmatchilarini uzluksiz malaka oshirib borish tizimi bilan qamrab olish darajasini 100 foizga yetkazish.	Sh.Ergashev, Sh.Xamidov
			"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi Qonunda nazarda tutilgan davlat fuqarolik xizmati tizimini to'liq ishga tushirish doirasida ushbu tizim bilan 70 dan ziyod davlat organlari qamrab olinishini ta'minlash.	Sh.Ergashev, B.Rahimov, Sh.Xamidov , X.Sultonov

30.	82.	Xalq bilan muloqotni yanada kengaytirish orqali aholi muammolarini aniqlash va hal etish tizimining samaradorligini oshirish.	Davlat organlari va tashkilotlarida murojaatlarni qog'oz shaklida ro'yxatga olish amaliyotini bekor qilish.	Sh.Ergashev, D.Urunbayev
			Barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy bo'linmalariga elektron shaklda, shu jumladan tegishli mobil ilova orqali murojaat qilish imkoniyatini yaratish.	S.Buzrukxonov, B.Raximov, Sh.Ergashev, X.Sultanov , F.Mo'minov, D.Urunbayev
			Murojaatlarning kamida 80 foizi mahalliy darajada qanoatlantirilishini ta'minlash.	S.Buzrukxonov, B.Raximov, Sh.Ergashev, F.Mo'minov , X.Sultanov, D.Urunbayev
			Takroriy murojaatlar ulushini kamida 2 barobar qisqartirish.	Sh.Ergashev, D.Urunbayev A.Xoliqov O'.Alijonov Sh.Nematov
			Hududlarda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni mahallaning o'zida hal qiladigan xalqchil tizim yaratish.	S.Buzrukxonov, Sh.Ergashev, F.Mo'minov , D.Urunbayev
			Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari mansabdor shaxslarining qabullarida masofadan videoaloqa vositasida ishtirok etish imkoniyatlarini 100 foizga yetkazish .	B.Rahimov, X.Sultanov , D.Urunbayev

4.2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimidagi islohotlar

31.	89.	Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish.	“Transparency International” xalqaro tashkiloti tomonidan e’lon qilinadigan Korrupsiyani qabul qilish indeksida kamida 50 pog’onaga ko’tarilishga erishish.	Sh.Ataxanov, B.Maxsudov
			Davlat xaridlari to’g’risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini 2 barobarga kamaytirishga erishish.	S.Buzrukxonov, Sh.Ataxanov, B.Maxsudov, F.Ashurov
			100 foiz normativ-huquqiy hujjatlarning “korrupsiyadan xoli qonunchilik” tamoyili asosida ishlab chiqilishini ta’minlash.	Sh.Ataxanov, B.Maxsudov

V. “XAVFSIZ VA TINCHLIKSEVAR DAVLAT” TAMOYILIGA ASOSLANGAN SIYOSATNI IZCHIL DAVOM ETTIRISH

5.1. Ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo’yicha islohotlar.

32.	90.	Yangi O’zbekiston tashqi siyosatini xalq va davlatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda izchil amalga oshirish.	Hamkor mamlakatlar bilan va nufuzli xalqaro tashkilotlar doirasida mintaqaviy va global masalalar bo’yicha muvozanatli va doimiy muloqotlar o’rnatish.	K.Karimov, F.Xodjayeva
33.	91.	Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish.	Afg’oniston bilan ko’pqirrali va o’zaro foydali munosabatlarni rivojlantirish, uning iqtisodiy tiklanishiga yaqindan ko’maklashish, transport-tranzit salohiyatini ro’yobga chiqarishga hissa qo’shish.	K.Karimov, F.Xodjayeva, O.Ro’ziyev
34.	94.	Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlarni qo’llab-	O’zbek tili va adabiyoti, tarix, madaniyat, san’at va hunarmandchilik yo’nalishidagi oliygohlarda xorijdagi vatandoshlar uchun 200 ta grant ajratish.	K.Karimov, A.Xoliqov, F.Xodjayeva

		quvvatlash, ular bilan doimiy muloqot tizimini joriy etish.	Vatandoshlar ishtirokida tibbiyot, ta'lim va ilm-fan sohalarida 100 ta loyihani amalga oshirish.	K.Karimov, Sh.Turdikulova, F.Xodjayeva , A.Xoliqov, U.Alijonov, Sh.Otajonov, O.To'ychiyev
35.	95.	Tashqi mehnat migratsiyasi tizimini takomillashtirish, xorijda mehnat faoliyatini yuritayotgan fuqarolarga har tomonlama ko'mak ko'rsatish.	Fuqarolarni xorijiy hamkorlar bilan birgalikda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida kasb-hunarga va chet tillariga o'qitish doirasida 2 mingta xorijiy kompaniyalar bilan kasbga o'qitish va ish bilan ta'minlash tizimini tashkil etish.	K.Karimov, Sh.Turdikulova, S.Buzruksenov, U.Alijonov , F.Xodjayeva, A.Xoliqov, Sh.Otajonov, D.Yusupov, O.To'ychiyev
5.2. Mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish bo'yicha islohotlar				
36.	100.	Jamiyatda millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlash va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini rivojlantirish.	"Yosh kitobxon" tanlovini qo'shimcha ravishda 6 ta tilda (qoraqalpoq, tojik, qozoq, rus, qirg'iz va turkman) o'tkazish.	S.Buzruksenov, R. Xudoyberganov , N.Kasimov
			Millatlararo munosabatlar sohasida ilmiy-ommabop maqolalar sonini 3 baravarga oshirish.	Sh.Turdikulova, O.To'ychiyev , Sh.Otajonov

Izoh: "O'zbekiston – 2030" strategiyasida vazirlikka yuklatilgan topshiriqlarning bajarilishiga barcha ijrochilar teng darajada mas'ulligi belgilansin.